

2-TOM, 11-SON

Investitsiya tushunchasi va uning iqtisodiy mazmuni va mohiyati

Tadqiqotchi: Matrasulova Feruza Baxodirovna

Bugungi investitsiyalar ertangi turmush tarzini belgilab beradi. Investitsiya moliyaviy nuqtai nazardan foyda olish maqsadida xo'jalik faoliyatiga qo'yilgan aktivlar bo'lib, buyumlashmagan kapital shaklida bo'ladi. Iqtisodiy jihatdan esa yangi korxonalar qurish, uzoq muddatli xizmat ko'rsatuvchi asbob uskunalarga hamda shu bilan bog'liq bo'lgan aylanma kapitalning o'zgarishiga ketgan xarajatlardir. Investitsiyalar hajmini belgilovchi asosiy omillar bo'lib foiz stavkasi va kutilayotgan o'rtacha foyda me'yorini hisoblanadi.

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning eng samarali va maqbul yo'li ham investitsiyalar hisoblanadi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev investitsiya va uning ahamiyati haqida quyidagi fikrlarni bildirib o'tganlar: "Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o'zbeksha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi"¹.

"Investitsiyalar — qonun hujjatlarida taqiqlanmagan tadbirkorlik faoliyati va boshqa turdagi faoliyat ob'ektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulkka bo'lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar"²

Reinvestitsiyalar — investitsiyalardan olingan, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan tadbirkorlik faoliyati va boshqa turdagi faoliyat ob'ektlariga kiritiladigan har qanday daromad, shu jumladan foyda, foizlar, dividendlar, royalti, lisenziya va vositachilik haqi, texnik yordam, texnik xizmat ko'rsatish uchun to'lovlar hamda boshqa shakldagi mukofotlar"³.

Investitsiyalarga turli olimlarimiz tomonidan turlicha ta'riflar berilgan. Jumladan, professor B.Y.Xodiyev va professor Sh.Sh.Shodmonov investitsiyalarga quyidagicha ta'rif berganlar: "Investitsiyalar — asosiy va aylanma kapitalni qayta tiklash va ko'paytirishga, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga qilingan sarflarning pul shaklidagi ko'rinishidir"⁴. Olimlarimiz bu ta'rifada asosiy e'tiborni ishlab chiqarishga qaratganlar ya'ni investitsiyalarni korxonalarining asosiy va aylanma kapitalini qayta tiklash va

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2023- 2025-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2022-yil 28-dekabr.

² Советский энциклопедический словарь. – М.: «Советская Энциклопедия», 1979.

³ O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, 2014-yil 9-dekabr. 3 – modda.

⁴ B.Y.Xodiyev, Sh.Sh.Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. 2017 y. 454-b.



2-TOM, 11-SON

ko'paytirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga qilingan sarflar sifatida qaraganlar.

Shuningdek boshqa olimlarimiz tomonidan investitsiyalarga turli ta'riflar berilgan:

“Investitsiyalar – foyda olish hamda ijobiy ijtimoiy samaraga erishish maqsadida tadbirkorlik obektlariga va boshqa faoliyat turlariga qo'yiladigan pul mablag'lari, banklarning maqsadli omonatlari, aksiyalar, boshqa qimmatli qog'ozlar, texnologiyalar, mashinalar, uskunlar, lisenziyalar, kreditlar, har qanday boshqa molmulk yoki mulkiy huquqlar, intellektual boyliklar”⁵

“Investitsiyalarning mazmuni aniq va ishonchli manbalardan mablag'lar olish, ularni asosli holda safarbar etish, rikslar darajasini hisobga olgan holda kapital qiymatini saqlash va ko'zlangan samarani olishdan iborat bo'ladi”⁶

“Investitsiya – bu mulk shaklidan qat'iy nazar, tadbirkorlik asosida faoliyat ko'rsatayotgan jismoniy va yuridik shaxslar yoki davlatning iqtisodiy va ijtimoiy samara olish maqsadida o'z boyliklarini qonun doirasida bo'lgan har qanday tadbirkorlik ob'ektiga sarflashidir”.⁷

Investitsiya atamasining iqtisodiy zaruriy mohiyatiga Rossiyalik bir qator olimlar tomonidan ham turlicha ta'riflar berilgan

“Investitsiyalar iqtisodiy foyda va ijtimoiy samara olish maqsadida investitsiya sohasi ob'ektlariga kiritiladigan barcha turdagi mulkiy va intellektual boyliklarni aks ettiradi”⁸;

“Investitsiyalar deganda foyda (daromad) olish va investorlarning individual maqsadlari singari ijobiy ijtimoiy samaraga erishish maqsadida iqtisodiyotning turli tarmoqlari va sohalariga, tadbirkorlik va boshqa turdagi faoliyat ob'ektlariga muayyan muddatga kapitalning maqsadli yo'naltirilgan qo'yilmasi shaklida amalga oshiriladigan xarajatlar yig'indisi tushuniladi”⁹;

“Investitsiyalar o'zini foyda (daromad) olish maqsadida milliy va xorijiy iqtisodiyotning turli tarmog'iga xususiy yoki davlat kapitalining uzoq muddatli qo'yilmasi sifatida namoyon etadi”¹⁰;

⁵ Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. T.: «Moliya», 2010. 303-b.

⁶ G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. T.: “Moliya” nashriyoti. 2003. 26-b.

⁷ Haydarov N.H. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya - soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari. I.f.d ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T.: 2003. 29-b.

⁸ Староверова Г.С., Медведев А.Ю., Сорокина И.В. Экономическая оценка инвестиций: учебное пособие. – М.: «КНОРУС», 2006. – С. 11.

⁹ Подшиваленко и др. Инвестиции: учеб. пос. – 3-е изд. – М.: «КНОРУС», 2006. – С.7.

¹⁰ Колмыкова Т.С. Инвестиционный анализ: учеб. пособие. – М.: «ИНФРА-М», 2009. – С. 7.



2-TOM, 11-SON

“Investitsiya tushunchasi foyda olish maqsadida qandaydir korxonalar, tashkilot, uzoq muddatli loyihalar va shu kabilarga kapital, pul mablag‘larini uzoq muddatga kiritishni anglatadi”¹¹.

Xorijlik iqtisodchi olimlar investitsiyalar tushunchasiga quyidagicha o‘z ta‘riflarini berib o‘tishgan.

“Investitsiyalar atamasini kapitalning kelgusida ko‘payishi maqsadida uning turli xil shaklda joylashtirilishi sifatida belgilash mumkin”¹²;

“Investitsiyalar – qo‘yilmaning kelgusida o‘shish maqsadida bugungi iste‘mol dan voz kechish”¹³;

“Investitsiya – ishlab chiqarish davri davomida paydo bo‘lgan kapital qo‘yilma qiymatining joriy o‘shishi. Bu o‘sha davrdagi foydaning iste‘mol uchun ishlatilmagan qismi hisoblanadi”¹⁴;

Yuqoridagi iqtisodchi olimlarning bergan ta‘riflaridan kelib chiqqan holda biz investitsiyalarga quyidagicha umumiy ta‘rif berdik: Investitsiyalar — korxonalar iqtisodiy o‘shishning muhim omili bo‘lib, asosiy va aylanma kapitalni qayta tiklash jarayonini tezlashtirish va ko‘paytirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish maqsadida tadbirkorlik subektlari va xorijlik tadbirkorlar bilan uzoqni ko‘zlagan holda tuzilgan strategik rejalarni amalga oshirishning poydevori hisoblanadi. Ya‘ni chet el yuridik va jismoniy shaxslari yoki davlat tomonidan qonun hujjatlarida taqiqlanmagan tadbirkorlik faoliyati va boshqa turdagi faoliyat obektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne‘matlar va ularga bo‘lgan huquqlar hamda mavjud jamg‘arilgan kapitaldan kelajakda foyda olish maqsadida amalga oshirilgan kapital qo‘yilmalaridir.

Iqtisodiy adabiyotlarda investitsiyalarni qo‘llash ko‘lami va investitsiyaga mablag‘ ajratish jihatdan turlarga ajratishadi. Moddiy ishlab chiqarish jarayonidagi investitsiyalashdan tashqari mamlakatda ijtimoiy madaniyat sohalari uchun, fan tarmoqlari uchun, madaniyat, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport sohalari uchun, informatika sohasi, tabiatni muxofaza qilish uchun, yuqorida ko‘rsatilgan sohalar uchun qurilishlarga, texnika va texnologiyalarni yangi turlarini qo‘llash uchun katta miqdorda investitsiya mablag‘lari ajratilmoqda. Bu investitsiyalarni hozirgi vaqtda xorijiy mamlakatlar adabiyotida «inson investitsiyasi», «inson kapitaliga investitsiya qilish» deb atashmoqda. Bu investitsiyaning alohida bir ko‘rinishi bo‘lib, asosan kishilarning sog‘ligini saqlash aqliy va ma‘naviy rivojlanishi uchun, xayotini uzaytirish hamda kishilarning ish faolliyati ijodiy qatnashi va uning samaradorligi oshishi uchun sarflanadi.

¹¹ Зубченко Л.А. *Иностранные инвестиции: учеб. пособие.* – М.: «КНИГОДЕЛ». 2006. – С. 7

¹² Ткаченко И.Ю. *Инвестиции: учеб. пособие.* – М.: «Академия», 2009. – С. 6.

¹³ Самуэльсон П.А. *Экономика: пер. с англ.* – М.: «БИНОМ», 1997. – С. 783.

¹⁴ Кейнс Дж.М. *Общая теория занятости, процента и денег: пер. с англ.* – М.: «Гетос АРВ», 1999. – С. 352.

